



UDK: 94:3(575.1)

Baxromjon O. BADALOV,
tayanch doktorant, Andijon davlat universiteti, Andijon, O'zbekiston
E-mail: bahromjon111@gmail.com., ORCID: 0009-0003-8687-8163

ADTI professori v.v.b. A.Abduxalimov taqrizi asosida

EXPERIENCE OF FIGHTING DISEASES IN THE UZBEKISTAN SSR DURING WORLD WAR TWO

Annotation

The article analyzes the historical experience accumulated in the fight against acute infectious and epidemiological diseases in Uzbekistan during World War II. The measures taken to prevent a humanitarian crisis in the context of the evacuation of millions of people to the country during the war, the creation of front-line hospitals and the deterioration of the sanitary and epidemiological situation are considered. In addition, a detailed study using sources analyzed the fact that the lack of medical services in hospitals, disinfection teams, and vehicles for transporting patients in the fight against infectious diseases during this dangerous and complex period has led to delays in epidemiological measures.

Key words: World War II, front, Uzbekistan, evacuation, sanitary control, military hospitals.

ОПЫТ БОРЬБЫ С БОЛЕЗНЯМИ НА ТЕРРИТОРИИ УЗБЕКИСТАНСКОЙ ССР ВО ВРЕМЯ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ

Аннотация

В данной статье аналитически исторический опыт, накопленный в борьбе с острыми инфекционно-эпидемиологическими заболеваниями на территории Узбекистана во время Второй мировой войны. Рассматриваются меры, принятые для предотвращения гуманитарного кризиса в контексте эвакуации миллионов людей в страну в годы войны, создания прифронтовых госпиталей и ухудшения санитарно-эпидемиологической ситуации. Кроме того, детальное исследование с использованием источников проанализировало тот факт, что нехватка медицинских услуг в больницах, дезинфекционных бригад и транспортных средств для перевозки пациентов в борьбе с инфекционными заболеваниями в этот опасный и сложный период привела к задержкам в проведении эпидемиологических мероприятий.

Ключевые слова: Вторая мировая война, фронт, Узбекистан, эвакуация, санитарный контроль, военные госпитали.

IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA O'ZBEKISTON SSR HUDUDIDA KASALLIKLARGA QARSHI KURASHISH TAJRIBASI

Annotatsiya

Maqolada Ikkinchi jahon urushi davrida O'zbekiston hududida o'tkir yuqumli va epidemiologik kasalliklarga qarshi kurashish borasida to'plangan tarixiy tajriba tahlil qilinadi. Urush yillarida mamlakatga millionlab aholining evakuatsiya qilinishi, frontorti gospihtallarining tashkil etilishi va sanitariya-epidemiologik vaziyatning murakkablashishi sharoitida gumanitar inqirozning oldini olish bo'yicha ko'rilgan choralar ko'rib chiqilgan. Bundan tashqari, mazkur tahlikali va murakkab davrda yuqumli kasalliklarga qarshi kurashishda shifoxonalarda tibbiy xizmatlar, dezinfektsiya otryadlari va bemorlar tashish uchun transport vositalarining yetishmasligi epidemiologik chora-tadbirlarning kechiktirilishiga sabab bo'lganligi manbalar yordamida batafsil tadqiqotda tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Ikkinchi jahon urushi, front orti, O'zbekiston, evakuatsiya, sanitariya-nazorati, harbiy gospihtallar.

Kirish. Urush maydonlarida shiddatli janlar ketayotgan murakkab bir vaziyatda front ortida antisaniariya holati og'irlashgan. Jumladan, O'zbekiston SSRda ham bir qancha kasalliklar juda avj olib ketgan. Bu davrda joylashtirilgan tibbiyot punktlaridagi sanitariya va gigiyena ahvoli qoniqarsiz bo'lgan. Chiqindilarning vaqtida olib chiqilmasligi, sovun va toza suv tanqisligi, la'ngi hamda boshqa kiyim-kechaklarni dezinfektsiya qilish imkoniyatlari cheklanganligi kasallikning keng tarqalishiga olib kelgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Urushning og'ir yillari sanitariya-epidemiya xizmati ishini yo'lga qo'yish qiyinlashib borgan. 1941-yil oktabrida SSSR Davlat Mudofaa Qo'mitasining "Mamlakatda epidemiya kasalliklari bo'yicha aholini ogohlantirish va ularga qarshi kurash" tadbirlarini o'tkazish yuzasidan maxsus qarori qabul qilingan. Evakuatsiya qilinganlarning aksariyati aholi turar joy binolariga joylashtirilgan. Aholi yashash punktlarida odam sonining ortishi tufayli shaharlarda sanitariya holati yomonlashib, turli kasalliklar epidemiyasi tarqalishining xavfi kuchaygan.

Noqulay vaziyat hisobga olinib, joylarda epidemiyaga qarshi kurash favqulodda komissiyalari tuzilgan[1].

Tadqiqot metodologiyasi. Shifoxonalarda tibbiy xizmatlar, dezinfektsiya otryadlari va bemorlar tashish uchun transport vositalarining yetishmasligi epidemiologik chora-tadbirlarning kechiktirilishiga sabab bo'lgan. Ba'zi hollarda bemorlarga tashxis qo'yilgandan so'ng 3 kundan ko'proq kechikkan holda habar berilgani qayd etilgan. Ayniqsa qishloq joylarda epidemiologik nazorat va profilaktik choralar yetarlicha amalga oshirilmagan.

Tahlil va natijalar. Birgina "Toshmali terlama"dan kasallanish holati 1942-yil yanvar oyida har 10 ming nafar aholiga nisbatan Namangan shahrida 45, Kosonsoyda 25, Uchqo'rg'onda 15, To'raqo'rg'onda 14, Popda 12, Chustda 10, Uychida 8, Yangiqo'rg'onda 7, Namanganda 4,5 va Norin tumanida esa 4 kishiga to'g'ri kelgan[2]. Bu davrga 10 ming 691 nafar bemorlarga tibbiy xizmat ko'rsatilgan. Bemordan 20,5 foizi kasallik boshlanganidan keyingi dastlabki 3 kun ichida, 25,1 foizi 3-4 kunlarda, 28,0 foizi 5-6 kunlarda, 17,4

foizi 7-9 kunlarda va 9,0 foizi 10 kun va undan keyingi vaqtda shifoxonaga yotqizilgan. Shu bilan, kasallik boshlanganidan keyingi 1 haftadan ortiq muddatda kechiktirilgan holda shifoxonaga yotqizilgan bemorlar ulushi 26,4 foizni tashkil etgan[3].

Viloyat markazlarida malariya bilan kasallanish holatlari o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4 ming 211 taga ko'p qayd etilgan. Kasallanish holatlarining o'sishi asosan Farg'ona va Urganch shaharlarida yuzaga kelgan. Toshkent, Andijon, Namangan va Termiz shaharlarida o'rtacha, Samarqand, Buxoro va Nukus shaharlarida esa nisbatan kamaygan. Viloyat markazlarida qayd etilgan barcha kasallanish holatlari umumiy kasallanish holatlarining 15,5 foizini tashkil etgan. Bu kasallik asosan qishloq joylarda keng tarqalgan[3].

Viloyat ijroiya qo'mitalari ichki resurslarni safarbar etish yo'li bilan kolxozlarda quruq havoli dezinsektorlar va yuvinish punktlari qurilgan. Ushbu qurilish ishlari O'zbekiston SSR Sog'liqni saqlash xalq Komissarligi epidemiya boshqarmasi tomonidan har bir viloyat uchun ajratilgan dezinsektorlar limiti asosida amalga oshirilgan.

Viloyatda ichterlama kasalligi bilan bog'liq 1 ming 165 ta holat qayd etilishi kasallikni tarqalish ko'rsatkichlarini keskin oshishiga olib keldi. Shuningdek, qizamiq kasalligi epidemiyasi yuqori cho'qqisiga ko'tarilib, bu borada 1 ming 842 ta holat ro'yxatga olingan. Maishiy turmush sharoiti og'irligi sababli viloyatda dezinteriya epidemiyasi yuzaga kelgan. Kasallikka chalinganlar soni 2 ming 91 nafarni tshkil qilgan.

Umuman olganda bu davrda respublika bo'ylab toshmalı terlama bilan kasallanish holatlarining 44,7 foizi hududlarda ro'yxatga olingan. Toshmalı terlama nafaqat shaharlarda, balki qishloq joylarda ham sezilarli darajada tarqalgan.

Eng yuqori ko'rsatkichlar Toshkent, Buxoro va Samarqand viloyatlarida kuzatilgan, eng past ko'rsatkichlar esa Surxondaryo, Xorazm viloyatlari va Qoraqalpog'iston ASSRda qayd etilgan. Shaharlar orasida eng yuqori ko'rsatkichlar Buxoro, Samarqand, Andijon va Farg'onada aniqlangan. Toshmalı terlama bo'yicha intensivlik ko'rsatkichi shaharlarda tumanlarga nisbatan 2,5 baravar yuqori bo'lgan[3].

O'zbekiston SSR bo'yicha shifoxonalarda toshmalı terlama bilan bog'liq o'lim holati o'rtacha 6,0 foizni tashkil etgan. Toshkent, Buxoro, Surxondaryo viloyatlarida bu ko'rsatkich ancha yuqori bo'lib, 13,0 foizgacha yetgan. Bu esa ushbu hududlarda kasallikning og'ir kechgani yoki tibbiy yordamning yetarlicha samarali bo'lmaganligini ko'rsatadi.

O'zbekiston SSR Sog'liqni saqlash xalq Komissarligi ma'lumotlariga ko'ra, bu davrda toshmalı terlama bilan bog'liq umumiy o'lim darajasi o'rtacha 6,5 foizni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich turli shaharlarda turlicha bo'lgan. Masalan, Toshkentda 3 foiz, Termizda 5 foiz va Urganchda 2 foizni tashkil etgan. Bu farqlar tibbiy xizmat ko'rsatish darajasi, shifokorlar malakasi, bemorlarni erta aniqlash va shoshilinch davolash tadbirlarining samaradorligi bilan bog'liq bo'lgan. O'lim holatlarining eng past ko'rsatkichi Toshkent 3,8 va Xorazm 3,7 foiz viloyatlari hissasiga to'g'ri kelgan[3].

Respublika bo'yicha toshmalı terlamaga chalingan bemorlarga tibbiy xizmat ko'rsatishda shifoxonalardagi mavjud o'rin joylarga qo'shimcha ravishda viloyat va shahar sog'liqni saqlash bo'limlari tomonidan ajratilgan binolarda yana 2 mingta o'rinlar yaratilgan. Jumladan, Toshkent, Andijon, Namangan, Farg'ona, Samarqand va Buxoro viloyatlarida 300, Qoraqalpog'iston ASSR hamda Xorazm viloyatida 150 tadan yotoq joylar tashkil etilgan. Bu davrda Toshkent shahri, Samarqand, Buxoro va Namangan viloyatlarida toshmalı terlama bilan bog'liq jiddiy holatlar kuzatilgan.

O'zbekiston SSR Sog'liqni saqlash xalq Komissarligi nazorati ostida hududlardagi Sog'liqni saqlash boshqarmalari tomonidan barcha tibbiyot muassasalarida xizmat ko'rsatilayotgan aholi o'rtasida sanitar-targ'ibot ishlari tashkil etilib, suhbatlar o'tkazish, bukletlar tarqatish va sanitar-targ'ibot materiallarini namoyish etish kabi samarali ishlar olib borilgan. Barcha korxonalarda, muassasalarda, jamoat yashash joylarida, kolxozlarda va boshqa joylarda toshmalı terlamaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha tizimli ma'ruza va suhbatlar tashkil etilgan.

Epidemiyalarga qarshi kurashish uchun kuchli brigadalar tuzilgan. Ular Qo'qon hamda Andijon oraliq'ida temiryo'l bo'ylab harakatlanib, kasallikka qarshi kurash olib borgan. Aholi orasida kasallik tarqalishini erta aniqlashda faollar va maktab o'qituvchilari jamoasi samarali mehnat qilgan. Bemorlarni davolashda esa, qayta o'qitilgan tibbiyot xodimlari jonbozlik ko'rsatgan. Natijada, respublikada birinchi bo'lib Namangan viloyatida toshmalı terlama kasalligi bartaraf etilgan. Ammo 1943-yil boshlarida kasallik tarqalishi yana qaytadan avj olib, viloyatda yanvar oyı holatiga 224 nafar bemorda toshmalı terlamadan kasallanish qayd etilgan. Ularning 90 nafari Namangan shahri hissasiga to'g'ri kelgan[4].

Bu borada Aris stansiyasida barcha poyezdlar temir yo'l nazorat otryadlari tomonidan sanitariya ko'rikdan o'tkazish belgilangan. Sanitariya ishlovi odamlarni yuvintirish, soch-soqolini kaltalatish kesish, buyumlar va vagonlarni dezinfeksiya qilishni o'z ichiga olgan. Ishlov Aris stansiyasida izopunktning quvvatiga muvofiq bajarilgan. Agar Arisda ishlov imkoniyati bo'lmasa, unda Toshkent va Ursatiyevskaya stansiyalaridagi izopunktlarda sanitariya ishlovi o'tkazilgan.

Sanitariya ishlovi yakunlanganidan so'ng, poyezd boshlig'iga tegishli guvohnoma berilgan. Ishlovdan o'tkazilmagan yo'lovchilarga poyezdlarda davom etishiga ruxsat berilmagan. Ko'rik guruhları va tibbiy xodimlar tomonidan haroratli bemorlar aniqlanganda darhol va shoshilinch ravishda tegishli temir yo'l yoki hududiy tibbiyot muassasalari yoki shifoxonalarga yuborilgan. Uzoq masofali poyezdlarda harakatlanayotgan shaxslar yo'lda temir yo'lining ko'rik guruhları tomonidan doimiy sanitariya nazoratidan o'tkazilgan[3].

Temir yo'l stansiyalari epidemiya tarqalishi uchun asosiy o'choqlar sifatida, tibbiyot xodimlari va sanitariya tashkilotlari tomonidan alohida e'tiborga olingan. Ular sanitariya nazoratini kuchaytirish, tezkor tadbirlarni amalga oshirish va bemorlarni aniqlashda muhim o'rin tutgan.

Bu davrda O'zbekiston SSR bo'ylab toshmalı terlamadan kasallangan bemorlar soni ortib, 1 ming 101 nafarga yetgan. Kasallikka qarshi kurashish maqsadida respublikada hammom va dezinfeksion kameralarni qurishga e'tibor kuchaytirilgan. Xususan, Namangan viloyatida 1943-yilda 352 ta hammom, 278 ta dezinfeksiya kameralari faoliyat yuritgan.

O'zbekiston SSR Sog'liqni saqlash xalq Komissarligi mablag'lari hisobidan qishloq shifokorlik punktlari, tuman sanitar-epidemiya stansiyalarida va shaharlarda kichik hajmdagi 150 ta statsionar quruq havoli dezinsektorlar qurilgan.

O'zbekiston SSR Partiya Qo'mitasi tomonidan mahalliy sanoatda xalq Komissarligi va O'zbekiston SSR Sanoat kengashi nazorati ostida soch olish mashinkalari, cho'milish qopları, idish yuvish poroshokları va boshqa asbob-uskunalar ishlab chiqarilgan[3].

Urush yillarida turli kasalliklar tarqalishini oldini olish maqsadida Ishchi deputatlari Farg'ona viloyat Kengashi Ijroiya qo'mitasining 1943-yil 30-iyundagi "Vitamin preparatlarini ishlab chiqarishni tashkil etish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga ko'ra, Moskva tibbiyot instituti professorlari tomonidan mintaqadagi ko'plab o'simliklardan

foydalanish imkoniyati va texnik-iqtisodiy asoslari, shuningdek, pivo zavod chiqindilari bo'yicha tadqiqot o'tkazilgan. Bundan asosiy maqsad juda muhim bo'lgan a, b, v vitamin preparatlarini ishlab chiqarish uchun Farg'ona pivo zavodida tayyorlangan suyuq achitqilar yordamida quruq achitqilar ishlab chiqarish edi[5].

Dastlabki vaqtlarda tibbiy xodimlar hamda mutasaddilar tomonidan yaqinlashib kelayotgan epidemiya tahdidiga jiddiy e'tibor berilmagan. Biroq, urush boshidanoq mamlakatga kirib kelayotgan aholini sanitariya-epidemiya choralari keskin kuchaytirish zarur edi. Xo'jalik xalq Komissarligi va Davlat sanitariya inspeksiyasi organlari sanitariya ishlarini ta'minlashda birinchi darajada mas'ul bo'lgan. Ammo bu vazifani bajarishda yetarli darajada samarali ishlar tashkil etilmagan. Hammomlar juda sust ishlagan, mahalliy tibbiy xodimlarning malaka ko'nikmalari yetarli darajada bo'lmagan[3].

Difteriya kasalligi Samarqand, Buxoro, Farg'ona va Termiz shaharlarida ancha yuqori bo'lib, xar 10 ming aholiga 9,7 nafardan 14,2 nafargacha yetgan. Viloyatlardagi shifoxonalarda difteriya bilan kasallangan bemorlarga tibbiy xizmat ko'rsatish 82,99 foizga kamaygan. Hududiy shaharlarda esa 95,7 foizga ko'tarilgan. Bu ko'rsatkich Namangan viloyatida 77,0, Farg'ona viloyatida 79,1, Andijon viloyatida esa 76,0 foizni tashkil etib, bemorlarga tibbiy xizmat ko'rsatish darajasi past bo'lgan.

O'zbekiston SSR Markaziy sanitariya-epidemiologiya nazorat bo'limi ma'lumotlariga ko'ra, difteriyadan vafot etganlarning o'rtacha umumiy ko'rsatkichi 24,3 foizni tashkil etgan. Bu Termiz shahrida 14,0 foizdan Farg'ona shahrida 37,0 foizgacha o'zgargan. Ayniqsa, Toshkent, Surxondaryo, Xorazm viloyatlarida hamda Qoraqalpog'iston ASSRda oziq-ovqatdan zaharlanish holatlari keskin kamaygan. Buxoro viloyatida esa 318 tadan 366 taga o'sgan[3].

Ko'k yo'tal (bundan keyin – koklyush) bilan kasallanish holatlari o'tgan yilning mos davriga nisbatan 94 taga kamaygan. Eng katta kamayish Farg'ona viloyatida 300 ta holatga to'g'ri kelgan. Biroq, Toshkent 444, Samarqand 108, Namangan 146 va Surxondaryo viloyatida 110 taga ko'paygan[3].

Viloyat shaharlarida esa koklyush bilan kasallanish holatlari 46,0 foizga oshgan. Eng katta o'sish Toshkent 771 ta, va Samarqand shahrida 194 ta holatda ro'y bergan. Kamayish esa Buxoro 173 ta va Farg'ona shahrida 106 ta holat bilan qayd etilgan. Hududlarda koklyush holatlari soni umumiy viloyatlardagi kasalliklarning 50,6 foizini tashkil etgan. Bu esa qishloq joylarda koklyush bemorliklari shaharlarga nisbatan sezilarli darajada kamroq qayd etilishini ko'rsatadi[3].

Shaharlarida koklyush kasalligi yuqorilik darajasi tumanlarga nisbatan uch barobar ko'p bo'lib, eng yuqori ko'rsatkichlar 53,6 foiz Termiz va 10,7 foiz Toshkent shahrida

qayd etilgan. Koklyush bilan kasallangan bemorlarga tibbiy xizmat ko'rsatish darajasi nisbatan o'sib, 10,8 foizga, shaharlarida esa 11,6 foizga oshgan.

1945-yil Shimoliy Orolbo'yi hududlarida o'lat (chuma) epidemiyasi tarqalgan. Kasallikka orolning shimoli-g'arbida joylashgan Akbasti posyolkasi aholisi o'lat bilan kasallangan tuya go'shtini iste'mol qilganliklari sabab bo'lgan. Natijada birinchi kunning o'zida 12 nafar kishi vafot etgan. Kasallik Oqquduq va Avan posyolkalariga ham tarqaladi. 1945-yilning avgustidan oktabrigacha 5 ta aholi punkti o'lat bilan zararlanishi oqibatida hudud aholisining 127 nafari vafot etgan[1].

Tashxis qo'yilgandan so'ng 3 kun ichida kasallik haqidagi habarnoma faqat 36,3 foiz holatlarda kelgan, ya'ni habar berishda sezilarli kechikishlar kuzatilgan. Tezkor habar berilmaganligi uchun ba'zi shifoxona va poliklinikalar shifokorlari o'z vaqtida yordam ko'rsata olmagan. Epidemiologik tekshiruv kechiktirilgan holda, kasallik haqida habar olinganidan uch kundan keyin o'tkazilgan va favqulodda habar berish 3,8 foiz holatda kuzatilgan. Shuningdek, kasallik boshlangandan so'ng ochiq manbani ishlov berish ancha kechiktirilgan. Bu jarayon 49,1 foiz holatda kasallik boshlanganidan uch kundan so'ng amalga oshirilgan[3].

Viloyatlar markazida joylashgan shaharlarda sariq kasalligiga chalinganlar soni viloyatlarning boshqa hududlariga nisbatan uch baravar ko'proq bo'lib, tegishli 15,7 foizdan 43,7 foizgachani tashkil etgan. Viloyatlarda eng yuqori ko'rsatkich Toshkent viloyatiga to'g'ri kelsa, Termiz, Buxoro, Urganch, Toshkent va Farg'ona shaharlari ushbu kasallik bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lgan.

Sariq kasalligi bo'yicha shifoxonalarda bemorlarga tibbiy xizmat ko'rsatish boshqa viloyatlarga nisbatan ko'proq Surxondaryo, Farg'ona va Andijon viloyatlarida hamda Farg'ona va Termiz shaharlari hissasiga to'g'ri kelgan. Bu ko'rsatkich Toshkent va Samarqand viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston ASSRda nisbatan kamroq bo'lgan, shuningdek, Namangan va Samarqand shaharlarida, 4,9 foizni tashkil etgan[3].

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekiston SSR hududida kasalliklarga qarshi kurashish borasida olib borilgan chora-tadbirlar natijasida urushning dastlabki kunlaridanoq temir yo'llar, vokzallar va evakuatsiya punktlarida qat'iy sanitariya-karantin nazorati o'rnatilishi yirik epidemiyalarning respublika ichkarisiga chuqur kirib borishini to'sib qo'yuvchi asosiy qalqon vazifasini o'tadi. Mahalliy iqlim sharoitidan kelib chiqib, kasalliklarga qarshi kurash, epidemik xavfli hududlarda aholini yalpi emlash ishlari tizimli yo'lga qo'yildi. Bu esa urush yillarida front ortida vahimali epidemiologik halokatlar kelib chiqishining oldini oldi.

ADABIYOTLAR

1. Mo'minova G.E. O'zbekistonda Sovet davrida sog'liqni saqlash tizimi tarixi (1917 – 1991-yillar) Tarix fan. dok. (DSc). ... diss. – Toshkent, 2018. - B. 82.
2. Namangan VDA, 111-fond, 1-ro'yxat, 65-yig'majild.
3. O'zR ITTH MDA1-fond, 1-ro'yxat, 3400-yig'majild.
4. Xasanov B. Ikkinchi jahon urushi yillarida Namangan viloyat sog'liqni saqlash tizimidagi o'zgarishlar / “Zamonaviy dunyoda ijtimoiy fanlar: nazariy va amaliy izlanishlar” nomli ilmiy masofaviy, onlayn konferensiya materialari. 2025 yil, 25 iyun -B. 144.
5. <https://portal.archive.uz/articles/77>